

MAVZU. ART-TERAPIYA METODLARI (ERTAK, QUM ART – TERAPIYASI, IJODIY AMALIYOT)

Bilish – fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolishi, tushunishi, nazariy *jihatdan tahlil qila olishi*.

1. [B – 1 ball] San'at orqali bolaning ichki dunyosini ifodalash, ruhiy taranglikni kamaytirish va o'zini anglash jarayonini rag'batlantirishga xizmat qiladigan psixologik metod to'g'ri berilgan javobni tanlang.

- A) Kognitiv terapiya
- B) Art-terapiya
- C) Psixodrama
- D) Sotsial trening

Manba: Z.T. Nishonova Rivojlanish psixologiyasi. T., 2018

Bilish – fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolishi, tushunishi, *nazariy jihatdan tahlil qila olishi*.

2. [B – 1 ball] Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zaro muloqotga rag'batlantirish uchun qo'llaniladigan psixologik metod qaysi?

- A) Kognitiv terapiya
- B) Sotsial trening
- C) Art-terapiya
- D) Nutq terapiyasi

Manba: G.Andreev Satsial psixologiya M.,1997.

Bilish – fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolishi, tushunishi, nazariy jihatdan tahlil qila olishi.

3. [B – 1 ball] Art-terapiyaning qaysi turi bolalarning ichki dunyosini ertaklar va hikoyalar orqali tushunishga yordam beradi?

- A) Qum terapiyasi
- B) Ertak terapiyasi
- C) Ijodiy amaliyotlar
- D) Muzika terapiya

Manba: Kramer.E. Арт терапия с детьми. Москва., 2021

Bilish – fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolishi, tushunishi, nazariy jihatdan tahlil qila olishi.

4. [B – 1 ball] Qum terapiyasida asosiy terapevtik vosita sifatida nima ishlatiladi?

- A) Ertak va hikoyalar
- B) Rasm chizish

C) Maxsus qum qutisi va kichik shakllar *

D) Musiqa

Manba: G.Tursunova Art-terapiya va uning turlari T., 2020

Bilish – fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolishi, tushunishi, nazariy jihatdan tahlil qila olishi.

5. [B – 1 ball] Maktabgacha yoshdagi bolalarda art-terapiya mashg'ulotlari qaysi sohalarni rivojlantirishga xizmat qiladi?

A) Faqat motorika va ijtimoiy ko'nikmalar

B) Ijodiy tafakkur, emotsional muvozanat va motorika *

C) Matematik qobiliyatlar

D) Faqat nutq va so'z boyligi

Manba: Kramer.E. Арт-терапия с детьми Москва., 2021

Bilish – fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolishi, tushunishi, nazariy jihatdan tahlil qila olishi.

6. [B – 1 ball] Art-terapiyada bolaning motorika va sezgi faoliyatining rivojlanishi qanday amalga oshiriladi?

A) Faqat rasm chizish orqali

B) Haykal yasash va bo'yash mashg'ulotlari orqali *

C) Faqat o'yinchoqlar bilan o'ynash orqali

D) Faqat nutq mashqlarini bajarish orqali

Manba: L.Mamorasulova Rivojlanish psixologiyasi va art-terapiya asoslari T., 2021

Qo'llash – o'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish.

7. [Q – 2 ball] Quyidagi vaziyatni o'qib, to'g'ri javobni belgilang.

MTT tarbiyalanuvchilarida ichki stress va ruhiy taranglikni kamaytirish maqsadida psixolog art-terapiya mashg'ulotlarini o'tkazdi. Bola rasm chizish va musiqa orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalay boshladi.

Ushbu metod asosan qaysi psixologik jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi?

A) Emotsiyalarni boshqarish va o'zini anglash

B) Faollikni oshirish

C) Kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish

D) Til o'rganishni tezlashtirish

Manba: M.G'afforova Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi 2019

Qo'llash – o'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish.

8. [Q – 2 ball] Maktabgacha yoshdagi bola art-terapiya mashg'ulotida rasmda ko'p qorong'ilik va yolg'izlik tasvirlarini chizmoqda. Psixolog qanday chora ko'rish kerak?

A) Bola bilan uning his-tuyg'ulari haqida suhbat o'tkazib, qo'rquvlarni aniqlash

B) Bola rasmni darhol o'zgartirishni talab qilish

C) Bola yolg'iz qolishi uchun imkon yaratish

D) Bola rasmiga aralashmaslik

Manba: Zebiniso Ahmedovaning Ertak-terapiya T., 2019

Mantiqiy asoslash – muayyan ta'limiy vaziyatda faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish.

9. [M-3 ball] MTT psixologi art-terapiya mashg'ulotlari orqali tarbiyalanuvchilarning ichki hissiy holatini yaxshilashga erishdi. Bola o'z his-tuyg'ularini rasm va musiqa yordamida ifodaladi va bu ichki konfliktlarni aniqlashga imkon berdi. Ushbu holatda art-terapiyaning qanday psixologik ahamiyati mavjud?

A) Ichki konfliktlarni hal etish

B) O'zini anglash va shaxsiy rivojlanishni rag'batlantirish

C) Jismoniy salomatlikni oshirish

D) Ijtimoiy faollikni kamaytirish

E) Nutq rivojini kechiktirish

Manba: К.Кааню Основы арт-терапии 2005

Mantiqiy asoslash – muayyan ta'limiy vaziyatda faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish.

10. [M – 3 ball] Psixolog art-terapiya mashg'ulotida ba'zi bolalar o'zlarini erkin ifoda eta olmayapti va mashg'ulot davomida faqat tomosha qilmoqda.

Psixolog quyidagilardan qaysilarini amalga oshirishi lozim?

A) Bola bilan individual suhbat o'tkazish va qiziqishini oshirish *

B) Mashg'ulotda faqat faol ishtirok etayotgan bolalarga e'tibor qaratish

C) Guruhdagi faoliyatni o'zgartirib, bolalarni rag'batlantirish *

D) Mashg'ulotni qisqartirish

E) Bola qiziqmagan holatda majburlash

Manba: K.Кааню Основы арт-терапии 2005

Mantiqiy asoslash – muayyan ta'limiy vaziyatda faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish.